

“KAMBAG’ALLIKDAN-FAROVONLIK SARI” YOXUD MENING OILAM -MENING MAHALLAM

Kodirova Gulsinoy Kuldashevna

Toshkent shahar Uchtepa tumani 6-uchaska

Oqmachit MFY da ijtimoiy xodim

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mahallalarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llariga bag'ishlangan mualliflar tomonidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Qolaversa, bugungi kunda mahallalarda xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish, bu yo'l orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llari bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *mahalla, xizmat ko'rsatish, xizmat, kambag'allikni qisqartirish.*

KIRISH

Zamon doimo rivojlanishda uning rivojlanishi esa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bog'liq. Shu sababdan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tizimlashtirish, har soha va tarmoqda ushbu ishlarni amalga oshirish bugungi kundagi barcha hukumat, tashkilotlar va korxonalar oldidagi asosiy va dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, korxonalarning rivoj topishi iste'mol daromadlariga bog'liq. Bu esa aholining ish bilan ta'minlanganligi, aholining daromad sohalari kengayishi bilan bog'liq. Ayniqsa, mahallalarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag'allikni kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish, aholining iste'mol savatchasi miqdori va sifatini doimo oshirib borish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida”gi PF-143-son Farmonining ijrosini samarali ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini (keyingi o'rinlarda — Dastur) amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

2024-2025-yillarda aholini kambag'allikdan chiqarishning yo'nalishlar va hududlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlari 2 va 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlar Mahkamasi (A. Aripov):

ikki hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining taklifiga asosan eng og'ir ahvoldagi 1 000 ta mahallani tanlab, ro'yxatini shakllantirsin hamda ularning infratuzilmasini yaxshilash dasturini 1-noyabrga qadar tasdiqlasin. Bunda 2024-2025-yillarda mazkur mahallalarda tomorqa yerlarini sug'orishni yaxshilash yoki ularda elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini

ta’minlash, internet sifatini oshirish, ichki yo‘llarni ta’minlash va boshqa infratuzilmani yaxshilash maqsadlari uchun jami 3,2 trillion so‘m mablag‘lar ajratiladi;

2024-yil 1-dekabr qadar tadbirkorlik faoliyati hamda aholining barcha qatlamlariga yashash va dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida 2024-2025-yillarda 4-ildavaga muvofiq tuman va shaharlarni jadal kompleks rivojlantirish, shu jumladan, ularda kamida bittadan mahallada “yashil mahalla” loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi dasturlarni tasdiqlasin. Bunda mazkur tuman va shaharlarda yuqori iqtisodiy o‘rinishga turtki beruvchi ijtimoiy va infratuzilma loyihalari uchun Davlat budjetidan 2024-yilda 500 milliard so‘m va 2025-yilda 1 trillion so‘m mablag‘lar ajratilsin;

o‘n kun muddatda har bir tuman va shaharning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi 5 tadan “drayver” loyihalar ro‘yxatini tasdiqlasin va ularga zarur infratuzilmani yaratish uchun Davlat budjetidan 2024-2025-yillarda 1 trillion so‘m mablag‘ ajratilishini ta’minlasin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi mazkur badda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin hamda 2025-yil uchun Davlat budjeti qonuni loyihasida zarur mablag‘larni nazarda tutsin.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank va tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda aholini tadbirkorlikka jalb qilish hamda Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar (keyingi o‘rinlarda — kambag‘al oilalar) a‘zolarining bandligini ta’minlagan tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun:

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, “Biznesga birinchi qadam” dasturlari hamda mikromoliya tashkilotlari orqali joriy yil yakunigacha 4 trillion so‘m, 2025-yilda 15 trillion so‘m kreditlar ajratilishini ta’minlasin;

o‘n kun muddatda subsidiyalar turlarini maqbullashtirish va mazkur maqsadlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar hajmini kamaytirmagan holda kambag‘al oilalarga foizsiz ssuda ajratish tartibi bo‘yicha takliflarni kiritsin;

tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni muntazam ravishda o‘tkazib borish, ularning muammolarini hal qilish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning uzluksizligini ta’minlash hamda kreditlash hajmini oshirib borish, tashabbuskorlarga bo‘sh yer maydonlarini aukcion orqali sotish choralari ko‘rsin, tadbirkorlarning infratuzilma bilan bog‘liq muammolarini hal etsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, mahallalarda kambag‘al oilani aniqlash, uni Kambag‘al oilalar reyestriga kiritish, kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan choralarni ko‘rish, reyestrda chiqarish jarayonlari “mahalla yettiligi” tomonidan hamkorlik asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

kambag‘al oilalar yagona savolnoma asosida baholanadi va ularning ijtimoiy portreti shakllantiriladi;

ijtimoiy xodim va hokim yordamchisi tomonidan ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, uy-joy, bandlik, ta‘lim, xulq-atvor yo‘nalishlarini qamrab oluvchi oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual reja ishlab chiqiladi;

kambag‘al oilalarga — daromadli mehnat faoliyati bilan band qilish va tadbirkorlikka jalb qilish yo‘nalishida hokim yordamchisi, ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash va ta‘lim yo‘nalishlarida — ijtimoiy xodim hamrohlik qiladi;

oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual rejaning samaradorligi va natijadorligi monitoring qilib boriladi.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi (K. Kuranbayev) ikki hafta muddatda mahalla raislari, mahalla faollari va nuroniylari hamda ko‘chaboshilarning Dasturda belgilangan har bir yo‘nalish bo‘yicha chuqur o‘qitilishini ta‘minlasin.

Bunda mahalla raislari, mahalla faollari va nuroniylari hamda ko‘chaboshilar har kuni ko‘chama-ko‘cha yurib, har bir xonadon va oilada:

tomorqaga ekin ekish, uy-joyida shinam va fayzli muhit yaratish, tozalikni saqlash, to‘g‘ri ovqatlanish, piyoda yurish, zararli odatlardan voz kechish bo‘yicha faol targ‘ibot va tashviqot olib borsin;

farzandlarida bolalikdan boshlab kitobxonlikka mehr uyg‘otish, ularni xorijiy tillar, kasb-hunar va san‘atga o‘rgatish, ayoli va qizining o‘qishi va ishlashi uchun sharoit yaratish — muhim hayotiy vazifa, degan qarashni shakllantirsin;

o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yib, ularga halol mehnat, doimiy izlanish va shijoat orqali erishishga intilib yashashni kundalik hayot tarziga aylantirishga ko‘maklashsin;

o‘z oilasi va mahallasining tinchligi va farovonligi uchun kuyinish, o‘zaro ahillik va hamjihatlikni ta‘minlash, hayotimizdagi o‘zgarish va yangilanishlarga daxldorlik hissini kuchaytirish bo‘yicha muntazam ta‘sirchan ish olib borsin;

mahallalarga birlashtirilgan tijorat banklari va boshqa mas‘ullardan mahalladagi vazifalarining to‘liq bajarilishini talab qilsin, shuningdek, kambag‘al oilalarning ijtimoiy shartnomadagi o‘z majburiyatlariga mas‘uliyat bilan amal qilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish.

6. Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda 2024-2025-yillarda paxta-g‘alla maydonlarini qisqartirish hisobiga “kompaniya — kooperativ — dehqon xo‘jaligi” tamoyili asosida dehqonchilik va bog‘dorchilik tashkil etish uchun 50 ming gektar yer maydonini kambag‘al oilalarga 30 yilgacha ijaraga berish bo‘yicha qaror loyihasini kiritsin. Bunda:

yer maydonlarini ijaraga berish bo‘yicha elektron onlayn auksion savdolarini “mahalla yettiligi”ning tavsiyasi bilan kambag‘al oilalar o‘rtasida o‘tkazish;

yer maydonlarini ijaraga berish bo‘yicha elektron onlayn auksion savdolari g‘oliblariga yer uchastkasi narxini 10 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat berilishi ko‘zda tutilsin.

7. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-son qaroridan kelib chiqib umumta’lim maktablarining bo‘sh turgan yer va bino-inshootlarida xorijiy tillar, kasb-hunarga o‘qitish va axborot texnologiyalari va dasturlash bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish hamda maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 2025-yil yakunigacha 80 foizga yetkazish bo‘yicha dasturni ikki oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

Sport vazirligi bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar har bir umumta’lim maktabida, “Barkamol avlod” bolalar maktablarida, shu jumladan, xususiy sektorni jalb qilgan holda maktabdan tashqari ta’lim va sport to‘garaklari tashkil etilishini ta’minlasin;

ikki oy muddatda xususiy maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilishini moliyaviy rag‘batlantirish bo‘yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Umumta’lim maktablarida to‘garaklarni tashkil etish va ularga kambag‘al oilalarning farzandlarini jalb qilish maqsadida 2025-yil uchun mahalliy budjet parametrlarini shakllantirishda 500 milliard so‘m mablag‘ nazarda tutilsin.

8. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-noyabrga qadar oliy ta’lim muassasalariga davlat granti bo‘yicha qabul kvotasini bosqichma-bosqich oshirish hamda kambag‘al oilalarning bilimli va iqtidorli farzandlari ta’lim olishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirishni nazarda tutuvchi qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi tarmoqlari bo‘lib, u O‘zbekiston iqtisodiyotini taraqqiyotini belgilovchi yangi yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xizmatlarning xilma-xil yangi turlari kengayib, xizmatlar bozorida salmoqli o‘rinni egallab borayotgan bank-moliya, turizm, sug‘urta, axborotkommunikatsiya xizmatlari va boshqalarni rivojlantirish hisobiga yangi ish o‘rinlari barpo etilmoqda.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning xududiy dasturlari va ularni amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda esa quyidagilarga alohida ahamiyat berilgan:

- xizmat ko‘rsatish sohasi tarkibini yanada takomillashtirish, aholi o‘rtasida talab katta bo‘lgan zamonaviy xizmat turlari bilan bozorni jadal rivojlantirish va to‘ldirish;

- shahar va qishlok aholi punktlari xududlarining qurilishini rejalashtirishda, tasdiqlangan me‘yorlardan kelib chiqqan holda, mintaqalar aholisiga turli ijtimoiy va kommunal-maishiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- birinchi navbatda qishloq aholi punktlarida xizmat ko‘rsatish korxonalarini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sohasiga oilaviy tadbirkorlik sub’yektlari hamda ixtisoslashgan kasb-xunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni keng jalb etish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi daromadlarini

ko‘paytirish va turmush farovonligini yaxshilashning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va kasanachilik sohalarini qo‘llab quvvatlash va rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Chunki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ko‘p jihatdan ushbu muammoni hal etilishiga bog‘liqdir. Shu sababli bugungi kunda respublikamizda aholini ish bilan ta‘minlash va uning farovonligini oshirish masalasiga ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

Kambag‘allikni qisqartirishning bosh omili sifatida tadbirkorlikni rivojlantirish, xususan, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlik, o‘zini-o‘zi band qilish xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish yo‘nalishlari, kambag‘allikni qisqartirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilgan.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, xususiy tadbirkorlik sub’ektlari uchun yaratilgan qulay shartsharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida mustahkam o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Xususan, 2021 yilda YaIMning 54,9 foizi, sanoatning 27,0 foizi, qurilishning 72,4 foizi, bandlikda 74,4 foizi, eksportning 22,3 foizi va importning 48,7 foizi kichik biznesga to‘g‘ri keladi.

Tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiyotda tutgan o‘rni, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni mustahkamlanib borayotganligida ham ko‘rish mumkin. Tadbirkorlikni iqtisodiyotda roli va o‘rnini iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko‘rsatkichlar hajmining tahlilidan ham ko‘rish mumkin. 2021 yilda savdo xizmatlarining 204787,4 mlrd. so‘mi, qolgan xizmatlarning 144812,7 mlrd. so‘mi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka to‘g‘ri kelmoqda.

Kambag‘allik tushunchasi, uning xalqaro mezonlari qay tartibda belgilanishi borasida jahonda umumqabul qilingan hamda yagona kelishuv mavjud emas. Har bir mamlakat o‘zi uchun belgilangan kambag‘allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi. Xususan, BMT ta‘rifiga ko‘ra, kambag‘allik insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish uchun to‘siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta‘lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta‘minlash imkoniyatlari yetishmasligi kabi cheklovlarda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, kambag‘allik bu – insonlar, uy xo‘jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligidir (BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining “Kambag‘allikni o‘lchash bo‘yicha qo‘llanma”sidan, 2017 yil Nyu-York, Jeneva).

Demak, yuqoridagi dalillardan kelib chiqib, aholini mehnat bilan ta‘minlash va yetarli daromad manbalarini shakllantirish kambag‘allikni qisqartirishning bosh omili bo‘lib

hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilish esa, aynan aholini mehnat bilan bandligini va yetarli daromad manbasiga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlikni yanada rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish masalasi bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1) Mahallalarda aholi tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, “mahallabay” ishlash tizimi orqali oilalarning daromad manbalarini, shu jumladan, tomorqa yerlardan foydalanish hamda daromadli mehnatga bo‘lgan intilishi va ehtiyojlarini «xonadonbay» o‘rganish, band bo‘lmagan aholining, ayniqsa, ishsiz yoshlar va xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi kurslarga yo‘naltirish va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga amaliy ko‘maklashish, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari va startap g‘oyalarini yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kreditlar ajratish;

2) Uy sharoitida xizmat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan yirik va o‘rta miqyosdagi korxonalar o‘rtasida sherikchilik mexanizmlarini, jumladan, kasanachilik ishlarini tashkil qilish, autsorsing shartnomalari asosida xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalari bilan sotuvdan keyingi servisni tashkil etish, servis markazlarga mutaxassislarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir;

3) ishsiz yoshlarni IT sohalardagi ko‘nikma va malakasini oshirish orqali ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy media marketolog, ijtimoiy tarmoqlarda tovar va xizmatlarni siljitish va reklama qilish, onlayn buyurtmalar qabul qilish, tovarlarni yetkazib berish kabilar orqali yoshlarni o‘zini o‘zi band qilish tizimini yanada rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” PF-29-son farmoni. 03.12.2021 yil. <https://lex.uz>.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6277-son farmoni. 11.08.2021. <https://lex.uz>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-31-son qarori. 03.12.2021 yil. <https://lex.uz>. 4. O.X.Махмудов. Оилаларда камбағалликни қисқартириш омиллари.

“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabrdekabr, 2021 yil, 267-276 betlar.

5. Эрназарова Н.Н. Оилавий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 бетлар.
6. Калонов М. “Камбағалликни қисқартириш: имконият ва ҳаракатлар қандай натижа беради?” «Халқ сўзи» газетасининг 2021 йил 11 февраль 30- сони.